



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

No6
MAXSUS SON



BAKALAVR TALABALARINIG MAQOLALARI TO'PLAMI



ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>

2025



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

Elektron nashr. 240 sahifa.

E'lon qilishga 2025-yil mayda ruxsat etildi.

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Musayeva Shoiraz Azimovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
Ali Konak (Ali Ko'nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldix'o'ja o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.
Utayev Uktam Choriyevich, O'z.Respub. Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig'i o'rinbosari
Ochilov Farkhod, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi IJQKD boshlig'i
Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Krissi Lyuis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Glazova Marina Viktorovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi (Moskva)
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sevil Piriyeva Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li, TDIU ITI departamenti rahbari
Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li, TDIU katta o'qituvchisi



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Okil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Abdurakhmanov Kalandar Khodjayevich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Sharipov Kongirاتبay Avezimbetovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Rae Kwon Chung, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
Osman Mesten, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
Akhmedov Durbek Kudratillayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Sayfullo Normatovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Kalonov Mukhiddin Bakhridinovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Siddikova Sadokat Gafforovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
Khudoykulov Sadirdin Karimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Makhmudov Nosir, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Samadov Askarjon Nishonovich, Candidate of Economic Sciences, Professor
Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Ikrom Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Eshtayev Alisher Abduganiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khakimov Nazar Khakimovich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Musayeva Shoira Azimovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
Ali Konak, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
Cham Tat Huei, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Utayev Uktam Choriyevich, Deputy Head of Department, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Ochilov Farkhod, Head of DCEC, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Akhmedov Javokhir Jamolovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
Judi Smetana, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Chrissy Lewis, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Glazova Marina Viktorovna, Candidate of Economic Sciences (Moscow)
Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Sevil Piriyeva Karaman, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli, Senior lecturer at TSUI

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Po'latov Baxtiyor Alimovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Aliyev Bekdavlal Aliyevich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xalikov Suyun Ravshanovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Rustamov Ilhomiddin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Kamilova Iroda Xusniddinovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
G'afurov Doniyor Orifovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, katta o'qituvchi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, mustaqil tadqiqotchi

Board of Experts:

Berkinov Bazarbay, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Pulatov Bakhtiyor Alimovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Aliyev Bekdavlal Aliyevich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khalikov Suyun Ravshanovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Rustamov Ilkhomiddin, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Khakimov Ziyodulla Akhmadovich, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Kamilova Iroda Xusniddinovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
Gafurov Doniyor Orifovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
Fayziyev Oybek Raximovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Khamidova Faridaxon Abdulkarimovna, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna, Senior Lecturer
Babayeva Zuhra Yuldashevna, Independent Researcher

08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
08.00.02 Makroiqtisodiyot
08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
08.00.06 Ekonometrika va statistika
08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
08.00.11 Marketing
08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
08.00.13 Menejment
08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zR Tabiat resurslari vazirligi, O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 28-fevraldagi
333/5-sonli qarori bilan
ro'yxatdan o'tkazilgan.



MUNDARIJA

Strategies for achieving sustainable growth through green economy transition.....	14
Umida Kakhramonova Gayratovna, Tillayev Khurshidjon Sulaymon oglu	
Current state and development prospects of tourism: comparative analysis and Uzbekistan's experience.....	20
Risolatbonu Shakhzodova, Laziza Khalilova, Nabijonov Biloliddin, Aziza Usmanova	
Инновационные подходы к повышению эффективности корпоративного управления.....	26
Тлеумуратова Мадинабону Дилмурат кизи, Уринов Бабур Насиллоевич	
Startup проекты и их реализация	30
Ёдгорова Мухайе Шухратовна, Иминова Наргиза Акрамовна	
Methodology of Teaching English: Traditional and Modern Approaches	34
Ravshanova Ziyoda Qahramon Qizi, Xoliqova Dilafruz Shuhratovna	
Государственный кредит и государственный долг.....	37
Срождиддинова З.Х., Тухтасинова Д.Н.	
Сравнительный анализ реформ государственных финансов в Китае и Грузии: уроки для Узбекистана	42
Срождиддинова Зарина Хайриддиновна, Шарифзода Мубина Дилмуроджон кизи	
Korxonalarda asosiy vositalar hisobini yuritishni takomillashtirish	49
Shakarov Shahzod Sobir o'g'li, Po'latov Xudoyberdi Uktamovich, Esanov Oybek Madatovich	
Sustainable consumption and production: economic challenges and solutions.....	55
Abdullayev Abdug'ofur, Abdubaxromov Abduazim, Eshniyozov Ozodbek, Azizbek Abdullayev	
Traffic congestion in Uzbekistan: causes and strategic solutions	60
Abdulloh Qodirov, Imron Egamberdiyev, Isomiddin Ravshanov, Munisa Bekmirzayeva	
The relationship between corruption and economic growth.....	64
Jurayev Jo'rabek, Abdullayeva Aziza, Mamatova Sarvinoz, Maha Ibrahim	
Crisis management in the tourism industry	74
Ikromova Munisa, Bahodirova Mohigul, Xalimova Dilbar, Abdullajonova Muslimabonu	
Impact of the touristic indicators on the poverty rate.....	80
Abdumanova Maftuna, Azizova Ruhshona, Shavkatova Mubiyabonu, Durdona Bahodirova	
Bringing sustainability: the role of the green economy in enhancing resource efficiency	91
Salokhiddinova Farangiz, Mardonov MuhammadYusuf, Shovkiyeva Munisa, Ahmadova Xurshida	
The relationship between innovation and environmental emissions.....	98
Mamadiyeva Ruxshona, Nurullayev Asliddin, Abduraimov Sardor Anvar o'g'li, Aysayeva E'zoza	
Green finance unlocked: innovations, challenges in Uzbekistan's perspectives.....	107
Dildora Khodjaeva Mukhamedkhodjaevna, Jamolova Madina Talgatovna, Lola Qidiralieva Ulug'bekovna	
Turning the tide: how Uzbekistan can tackle its water crisis	115
Rixsiboyev Mirhaydar, Orazov Kamron, Baratov Shakhriyor, Bahromjon Urmanov	
Drivers and losses of economic development of Tashkent: a desk study.....	125
Zaribbaeva Komila Ulugbek qizi, Durdona Davletova	
The digital economy in Uzbekistan: challenges and opportunities.....	133
Ro'zmatov Asror, Bo'riyev Javohir, Safarov Habibullo, Mubina Toirova	
Analysis of water consumption in Uzbekistan	139
Rayimjonova Gulsora, Sarvinoz Murodova, Yahyoyeva Nurhayo, Durdona Zaynutdinova	



Global leadership and cross-cultural management: an empirical analysis of intercultural communication competence (icc) in uzbekistan	144
Dr. Eka Surchman, ST, MT, Annisa ciptagustia, SE, M.SI, Abdurakhmanova Iroda Gulmurod qizi	
iqtisodiy masalalarni matritsa nazariyasi asosida modellashtirish va python dasturlash tilida yechish	154
Tojiyev Ilhom Ibraimovich, To'rayeva Feruza Dilmurodovna, Namozova Barchinoy G'ayrat qizi, Baxronova Zuhra Otaniyoz qizi	
Raqamli to'lov tizimlarining naqd pulsiz iqtisodiyotga o'tishdagi o'rni	167
Jo'rabekova Xumora Muzaffar qizi, Saidov Rasul Boltabayevich	
Рост зеленой экономики во всем мире	172
Баймуратова Зилола Алишеровна, Бобуржон Бахриддинович Избосаров	
Raqamli iqtisodiyotda soliq boshqaruvining transformatsiyasi: soliq tizimining avtomatlashtirilishi samarasi	181
Xodjamov Asliddin O'ktam o'g'li, Maqsudov Bunyod Abdusamat o'g'li	
Problems and prospects of developing small business in uzbekistan under the conditions of a green economy	187
Baymuradova Zilola Alisherovna, Boburjon Bahriddinovich Izbosarov	
Turizm va mehmondo'stlikning mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotiga ta'siri	197
Anvarova Muhsinaxon Otabek qizi	
Zamonaviy mehnat bozorida axborot asimmetriyasi va uning oqibatlarini	203
Tojialiye Sherdorbek Elmurod o'g'li, Ergashev Axmadjon Maxmudjon o'g'li	
Mintaqa iqtisodiyotini rivojlantirishda xususiy tadbirkorlikni o'rni	206
Ergasheva Dilnoza Anvar qizi, Absamatov Asqar Ergashovich	
Ipoteka kreditlash tizimini takomillashtirishning amaliy yo'nalishlari	211
Almuratova Nurlilo'Imasoy Naym qizi	
Xususiy sektorni moliyalashtirishning ichki va tashqi mexanizmlari va boshqaruv tizimlarini takomillashtirishning ayrim istiqbolli tomonlari	214
Ametov Quvandik Mamatjanovich, Karrieva Dildora Ruslan qizi	
Yashil energetika - barqaror iqtisodiyotning kaliti sifatida	219
Sharipboyev Husanboy Marks o'g'li, Umirov Islombek Furkatovich	
Moliyaviy regulatsiya va fiskal siyosat orqali xufyona iqtisodiyot ulushini qisqartirishning nazariy asoslari	225
Abdurasulov Xumoyun Jalil o'g'li, Axmedov Xasan Ruzibayevich	
The importance of foreign investments in the economic development of the country	229
Rahmonov Samandar, K.J. Matkarimov	
Nostandart bandlik tushunchasi va uning mintaqani rivojlantirishdagi ahamiyati	235
Abdikarimova Zuxra Baxramovna, Saida Eshchanova	



NOSTANDART BANDLIK TUSHUNCHASI VA UNING MINTAQANI RIVOJLANTIRISHDAGI AHAMIYATI

Ilmiy rahbar:

Abdikarimova Zuxra Baxramovna

Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori

ORCID:0009-0000-1165-1712

Saida Eshchanova

Urganch Ranch texnologiya universiteti talabasi

E-mail: dastoneshchonov2000@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada nostandart bandlik tushunchasi va uning mintaqaviy iqtisodiy rivojlanishdagi o'rni yoritilgan. Muallif nostandart bandlikning chekka hududlarda ish o'rinlarini yaratish, iqtisodiy faollikni oshirish va ijtimoiy tengsizlikni kamaytirishdagi ahamiyatiga to'xtalib o'tadi. Turli xalqaro tashkilotlar ta'riflari va ilmiy manbalar asosida nostandart bandlikning mohiyati chuqur ochib berilgan.

Kalit so'zlar: nostandart bandlik, mintaqaviy iqtisodiy rivojlanish, masofaviy ish, ishsizlikni kamaytirish, ijtimoiy tengsizlik, moslashuvchan mehnat bozori.

Abstract: This article explores the concept of non-standard employment and its role in regional economic development. The author highlights the importance of non-standard employment in creating jobs in remote areas, increasing economic activity, and reducing social inequality. The essence of non-standard employment is thoroughly analyzed based on definitions provided by various international organizations and academic sources.

Key words: non-standard employment, regional economic development, remote work, reduction of unemployment, social inequality, flexible labor market.

Аннотация: В данной статье освещаются понятие нестандартной занятости и её роль в региональном экономическом развитии. Автор останавливается на значении нестандартной занятости в создании рабочих мест в отдалённых районах, повышении экономической активности и снижении социального неравенства. Сущность нестандартной занятости раскрывается на основе определений различных международных организаций и научных источников.

Ключевые слова: нестандартная занятость, региональное экономическое развитие, удалённая работа, снижение безработицы, социальное неравенство, гибкий рынок труда.

KIRISH

Bozor munosabatlarning chuqurlashuvi va mehnat bozorida yuz berayotgan tizimli o'zgarishlar sharoitida yangi, moslashuvchan bandlik shakllarining ahamiyati ortib bormoqda. Xususan, nostandart bandlik ya'ni an'anaviy to'liq stavkali va doimiy ish joylaridan tashqari bo'lgan mehnat shakllari zamonaviy iqtisodiyotda nafaqat bandlik darajasini oshirish, balki hududlararo iqtisodiy tafovutlarni kamaytirishda ham muhim vosita sifatida maydonga chiqmoqda. Rivojlanayotgan mamlakatlar, jumladan O'zbekiston sharoitida ham nostandart bandlik imkoniyatlari, ayniqsa chekka va iqtisodiy faolligi past bo'lgan hududlar uchun muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Bugungi kunda globallashuv, raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanishi va ishbilarmonlik muhitining o'zgarishi natijasida ish beruvchilar va xodimlar o'rtasidagi mehnat munosabatlari yangi shakllarga ega bo'lmoqda. Masofaviy ish, soatbay mehnat, vaqtinchalik va mustaqil ish shakllari mintaqaviy mehnat bozorining yanada dinamik va moslashuvchan tuzilmasini shakllantirishga xizmat qilmoqda. Ayniqsa, ayollar, yoshlar, nogironligi bo'lgan shaxslar kabi mehnat bozorida imkoniyatlari cheklangan guruhlar uchun nostandart bandlik yangi imkoniyatlar eshigini ochmoqda. Shu jihatdan, nostandart bandlikni ilmiy jihatdan o'rganish, uning iqtisodiy



va ijtimoiy rivojlanishdagi o'rnini baholash ayniqsa mintaqaviy darajada dolzarb ilmiy-amaliy masalalardan biri hisoblanadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Nostandart bandlikni o'rganishda xalqaro tashkilotlar, iqtisodiy institutlar va taniqli olimlarning ilmiy ishlari muhim manba sifatida xizmat qiladi. Jumladan, Xalqaro Mehnat Tashkiloti (ILO) tomonidan 2016-yilda chop etilgan "Non-Standard Employment Around the World" nomli hisobotda nostandart bandlikning asosiy shakllari, tarqalish darajasi va ijtimoiy himoya bilan bog'liq muammolar tahlil qilinadi [2]. Ushbu manba nostandart bandlikni to'liq stavkali va doimiy ish shakllaridan farqli bandlik turi sifatida asoslab beradi.

OECD tomonidan 2020-yilda tayyorlangan "Non-Standard Work and the Role of Public Policy" nomli hisobotda esa nostandart ish shakllarining ommalashuvi bilan davlat siyosatining moslashuvchanligi va javobgarligi o'rtasidagi bog'liqlik yoritiladi [3]. Hisobotda ayniqsa vaqtincha va mustaqil ish shakllarining mehnat bozoriga bo'lgan ta'siri chuqur tahlil qilinadi.

Yevropa Komissiyasining 2018-yilgi "Non-Standard Forms of Employment" nomli hisobotida nostandart bandlik shakllarining (freelancerlik, qisqa muddatli shartnomalar) Yevropa Ittifoqi davlatlarida qanday shakllanayotgani, bu shakllarning huquqiy ta'minoti va ishchilarning barqarorligiga ta'siri ko'rib chiqiladi [4].

BMTning Yevropa Iqtisodiy Komissiyasi (UNECE) tomonidan 2020-yilda e'lon qilingan "Measuring Non-Standard Forms of Employment" nomli metodik qo'llanmada esa nostandart bandlikni statistik jihatdan o'lchash, tahlil qilish va qamrovini aniqlash usullari keltirilgan bo'lib, u ilmiy va amaliy tadqiqotlar uchun katta ahamiyat kasb etadi [5].

Shuningdek, 2019-yil Jahon banki va 2021-yil Xalqaro valyuta jamg'armasi tomonidan e'lon qilingan hisobotlarda nostandart bandlik yangi iqtisodiy va texnologik sharoitlarga moslashuvchan yondashuv sifatida talqin etiladi hamda bu jarayonning global bandlik strukturasiga ko'rsatgan ta'siri yoritiladi [6].

Sohadagi taniqli olimlardan biri Kalleberg A.L. o'zining ilmiy maqolasida nostandart bandlikni vaqtincha, yarim stavkali va shartnomaviy ish turlari orqali o'zgaruvchan iqtisodiy muhitga moslashgan model sifatida tasvirlaydi [7]. Standing G. esa bu bandlik shaklining xavfli jihatlariga e'tibor qaratib, nostandart bandlik orqali ishchilarning iqtisodiy xavfsizligi zaiflashayotgani va yangi ijtimoiy sinf "prekaritat" shakllanayotganini ta'kidlaydi [8].

Rubery J. nostandart bandlikning gender tengsizlikka ta'sirini tahlil qiladi hamda ayollar, yoshlar kabi guruhlarning mehnat bozori imkoniyatlarida mavjud bo'lgan noaniqliklarni ochib beradi [9]. De Stefano V. esa nostandart bandlik bilan shug'ullanuvchi ishchilarning huquqiy va ijtimoiy himoyasizligini alohida muammoli jihat sifatida ko'rsatadi [10].

TADQIQOT METODOLOGIYASI.

Mazkur tadqiqotda nostandart bandlik tushunchasi, uning nazariy asoslari, xalqaro tashkilotlar tomonidan berilgan ta'riflari, shakllari va mintaqaviy iqtisodiy rivojlanishdagi o'rni tizimli tarzda o'rganildi. Tadqiqotning nazariy bazasini Xalqaro Mehnat Tashkiloti (ILO), Iqtisodiy Hamkorlik va Taraqqiyot Tashkiloti (OECD), Jahon banki (World Bank), Yevropa iqtisodiy komissiyasi (UNECE) kabi xalqaro tashkilotlarning nashrlari, shuningdek, sohadagi yetakchi olimlar-Kalleberg, Standing, Rubery va De Stefano tomonidan ishlab chiqilgan ilmiy konsepsiyalar tashkil etdi. Ushbu manbalar asosida nostandart bandlikning zamonaviy iqtisodiyotdagi roli, ijtimoiy-iqtisodiy oqibatlar va mintaqaviy rivojlanishga ta'siri keng qamrovda o'rganildi.

Metodologik yondashuv sifatida kontent-tahlil va taqqoslovchi tahlil usullaridan foydalanildi. Kontent-tahlil orqali nostandart bandlik tushunchasiga berilgan turli ta'riflar o'rganilib, ularning umumiy jihatlar va farqlari aniqlashtirildi. Taqqoslovchi yondashuv orqali nostandart bandlikning turli shakllari va ularning mintaqaviy rivojlanishdagi o'rni xalqaro tajriba bilan solishtirilib tahlil qilindi.

Tadqiqotda nostandart bandlikning afzalliklari, ayniqsa chekka va qishloq hududlar uchuntahliliy-nazariy yondashuv asosida asoslab berildi. Unda masofaviy ish, freelancing, vaqtinchalik mehnat va platforma asosidagi ish shakllarining iqtisodiy samaradorligi va mintaqani rivojlantirishdagi imkoniyatlari yoritib berildi. Ushbu metodologik yondashuvlar orqali nostandart bandlikning nafaqat mehnat bozori barqarorligidagi, balki hududlararo tafovutlarni bartaraf etishdagi va iqtisodiy inklyuzivlikni ta'minlashdagi real ta'siri aniqlashtirildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Mintaqaviy iqtisodiy rivojlanish-bu nafaqat yirik sanoat va infratuzilma loyihalarini amalga oshirish, balki ushbu hududlarda istiqomat qilayotgan aholi uchun yangi ish o'rinlarini yaratish, ijtimoiy va iqtisodiy holatni yaxshilash jarayonidir. Bugungi kunda nostandart bandlik, ya'ni an'anaviy ish joylaridan tashqari mehnat shakllari, mintaqalarda bandlikni oshirish va iqtisodiy holatni yaxshilash uchun muhim vosita sifatida qaralmoqda.



V.K. Potemkin fikriga ko'ra, ishlab chiqarish faoliyatida ishchilarni ish bilan ta'minlash, mafkuraviy pozitsiyalarni shakllantirish, xulq-atvor va ijtimoiy harakatlarni tanlashda hal qiluvchi omil hisoblanadi [1].

Mintaqaviy rivojlanishda nostandart bandlikning asosiy afzalliklaridan biri-bu turdagi ishlarning geografik cheklovlariga nisbatan kamroq bo'lishi va ular ko'proq moslashuvchanlikka ega ekanligidir. Ayniqsa, chekka va qishloq joylarida yangi ish o'rinlarini yaratishda bunday bandlik shakllari mintaqani rivojlantirishda ancha samarali vosita bo'lishi mumkin.

Mintaqalarda iqtisodiy o'sishni ta'minlash uchun nostandart bandlik dasturlari va mexanizmlarini joriy etish dolzarb ahamiyat kasb etadi. Bu bandlik shakli nafaqat ish o'rinlari yaratishga, balki iqtisodiy diversifikatsiyani ta'minlashga ham xizmat qiladi. Shu bilan birga, nostandart bandlik barqarorlik va ijtimoiy tengsizlikni kamaytirishga qaratilgan strategiyalar bilan uyg'unlashgan holda amalga oshirilsa, uning samaradorligi yanada ortadi.

Mehnatga layoqatli aholining mehnat bozoridagi ishtiroki va bandlik darajasini tahlil qilishda ushbu qatlamning ichki tuzilmasini aniqlash muhim ahamiyatga ega. Quyidagi chizmada mehnatga layoqatli aholining tarkibiy guruhlarini hamda ularning mehnat faoliyatidagi holati grafik tarzda aks ettiriladi (1-rasm).



1-rasm. Mehnatga layoqatli aholi tarkibi¹

1-rasmda mehnatga layoqatli aholi tarkibiy jihatdan ikki asosiy guruhga ajratilganini ko'rish mumkin. Birinchi guruh ishchi kuchi bo'lib, ular mehnat bozorida faol ishtirok etuvchi shaxslar hisoblanadi. Ushbu guruh o'z navbatida ishsizlar va bandlarga bo'linadi. Ishsizlar-bu hozirda ish joyiga ega bo'lmagan, biroq faol tarzda ish izlayotgan shaxslardir. Bandlar esa ikki toifaga ajratiladi: qisman band va to'liq band. Qisman bandlik vaqtinchalik yoki qisqa muddatli ish faoliyatini, to'liq bandlik esa doimiy ish joyiga ega bo'lgan shaxslarni anglatadi.

Ikkinchi guruh esa ishchi kuchiga kirmaydiganlardan iborat bo'lib, bu guruhga mehnatga layoqatli bo'lsa-da, turli sabablarga ko'ra mehnat bozorida ishtirok etmaydigan shaxslar kiradi. Ular uch toifaga bo'linadi:

- Boshqa sabablar bilan ish qidirmaydiganlar-bu toifaga o'qiyotganlar, uy ishlarida band bo'lganlar yoki ish topishga umidini yo'qotganlar kiradi;
- Nafaqadagi shaxslar-yoshi yoki sog'lig'i sababli mehnat faoliyatini yakunlaganlar;
- Doimiy mehnatga layoqatsizlar-jismoniy yoki ruhiy imkoniyatlari cheklangan shaxslar.

Ushbu tasnif mehnat bozorining holatini, ishsizlik darajasini, aholi bandligini tahlil qilishda muhim metodologik asos bo'lib xizmat qiladi. Shu bilan birga, u iqtisodiy faollik darajasini baholash, demografik bosim ko'rsatkichlarini aniqlash, ijtimoiy himoya mexanizmlarini shakllantirish va bandlik siyosatini takomillashtirishda muhim ahamiyatga ega.

Zamonaviy mehnat bozori sharoitida bandlik shakllarining xilma-xilligi ortib bormoqda. An'anaviy, ya'ni doimiy va to'liq ish vaqti asosidagi ish shakllaridan tashqari, nostandart bandlik turlari ham keng tarqalmoqda. Globallashtirish, texnologik taraqqiyot hamda iqtisodiy va ijtimoiy o'zgarishlar natijasida ish beruvchilar va xodimlar o'rtasida yanada moslashuvchan va ehtiyojlarga mos keluvchi mehnat munosabatlariga bo'lgan talab ortib bormoqda.

Nostandart bandlik tushunchasi an'anaviy to'liq stavkali va doimiy ish shakllaridan farq qiluvchi bandlik shakllarini anglatadi. Ushbu shakllar odatda vaqtinchalik, qisman bandlik, mustaqil (freelance), agentliklar

¹ Muallif tomonidan shakllantirildi



orqali yollanish yoki raqamli platformalar asosida amalga oshiriladigan ishlarni o'z ichiga oladi. Bunday bandlik turlari xodimlarga va ish beruvchilarga moslashuvchanlik, xarajatlarni optimallashtirish va resurslardan samarali foydalanish imkonini beradi.

Nostandart bandlik-bu an'anaviy ishchi-xodim munosabatlaridan farq qiluvchi, moslashuvchan mehnat sharoitlariga asoslangan bandlik shakli bo'lib, xodimlarga ish vaqti, ish joyi yoki mehnat shartlari bo'yicha muqobil variantlarni taqdim etadi. Zamonaviy iqtisodiy tizimda ushbu model mehnat bozorining ajralmas tarkibiy qismiga aylanib bormoqda. U nafaqat ish beruvchilar va xodimlar uchun yangi imkoniyatlar yaratadi, balki bandlik tizimining umumiy moslashuvchanligini ta'minlashda ham muhim rol o'ynaydi. Tadqiqotning keyingi bosqichida nostandart bandlik tushunchasi va uning mohiyatiga chuqur e'tibor qaratish lozim. Mazkur bandlik shaklini turkumlash borasida hali ham aniq xalqaro konsensus mavjud emas. Turli tadqiqotchilar tomonidan nostandart bandlikning tarkibiy shakllari va tavsiflariga oid turlicha yondashuvlar ilgari surilmoqda (1-jadval).

1-jadval. Turli tadqiqotchilar tomonidan nostandart bandlik tushunchasiga nisbatan qarashlar

No	Ta'rif beruvchi	Ta'rif
1.	International Labour Organization (ILO)	Nostandart bandlik an'anaviy to'liq va doimiy ishlardan farq qiluvchi mehnat shakllarini o'z ichiga oladi[2].
2.	OECD	Nostandart bandlik to'liq ish vaqtiga ega bo'lmagan, vaqtincha yoki mustaqil mehnat shakllaridir[3].
3.	European Commission	Nostandart bandlik qisqa muddatli shartnomalar, freelancerlik va vaqtinchalik ishlardan iborat[4].
4.	United Nations Economic Commission for Europe (UNECE)	Nostandart bandlik rasmiy va to'liq stavkali mehnatdan tashqaridagi ish shakllarini qamrab oladi[5].
5.	World Bank	Nostandart bandlik qisqa muddatli yoki mustaqil shartnomalar asosida mehnat qilishdir[6].
6.	International Monetary Fund (IMF)	Nostandart bandlik yangi iqtisodiy va texnologik sharoitlarga moslashgan moslashuvchan bandlik shaklidir[7].
7.	Kalleberg, A.L.	Nostandart bandlik o'zgaruvchan iqtisodiy sharoitlarda ishchi kuchining moslashuvchan shaklini ifodalaydi[8].
8.	Standing, G.	Nostandart bandlik iqtisodiy xavfsizlikning pasayishi va mehnat shartlarining zaiflashishi bilan xarakterlanadi[9].
9.	Rubery, J.	Nostandart bandlik gender va ijtimoiy tengsizlikni chuqurlashtirishi mumkin[10].
10.	De Stefano, V.	Nostandart bandlik ishchilarning huquqiy va ijtimoiy himoyasizligini oshirishi mumkin[11].

Yuqoridagi 1-jadvalda nostandart bandlik tushunchasiga xalqaro tashkilotlar hamda taniqli olimlar tomonidan berilgan ta'riflar keltirilgan. Umuman olganda, nostandart bandlik zamonaviy mehnat bozorida keng tarqalib borayotgan moslashuvchan ish shakllarini ifodalaydi. Ushbu bandlik turi ish beruvchilar va xodimlar uchun yangi imkoniyatlar yaratadi, ayniqsa chekka hududlarda yashovchi aholi, ayollar va yoshlar bandlik darajasini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Biroq, bu bandlik shaklining xavfsizlik, barqarorlik va ijtimoiy himoya nuqtai nazaridan zaif tomonlari mavjud bo'lib, uni rivojlantirishda tegishli siyosiy va huquqiy choralarni ko'rish zarurati mavjud.

Mintaqalarni rivojlantirishda nostandart bandlikning ahamiyati beqiyos bo'lib, u an'anaviy bandlik shakllariga nisbatan ko'proq moslashuvchanlik va iqtisodiy imkoniyatlarni taqdim etadi. Ayniqsa, iqtisodiy va ijtimoiy tengsizlikni kamaytirish, shuningdek, uzoq hududlarda yashovchi aholini mehnat bozoriga jalb etishda nostandart bandlikning quyidagi jihatlari alohida ajralib turadi:

Ishsizlikni kamaytirish. Nostandart bandlik shakllari mintaqalarda ish topish imkoniyatlarini kengaytiradi. Ayniqsa, qishloq va chekka hududlarda mehnat bozorining cheklanganligi sharoitida masofaviy ish va platforma mehnati orqali aholi daromad manbaiga ega bo'lishi mumkin. Bu shakllar talab va taklif o'rtasida muvozanatni ta'minlab, vaqtinchalik yoki soatbay ish shakllariga bo'lgan ehtiyojni qondiradi.

Qishloq hududlarida iqtisodiy faollikni oshirish. Aholiga nostandart bandlik shakllarini taklif etish orqali mahalliy iqtisodiyot faollashadi, chunki daromad topgan aholi mablag'larini o'z hududida sarflaydi. Bu esa



tadbirkorlik faoliyatiga bo'lgan qiziqishni kuchaytiradi, ayniqsa ijtimoiy tadbirkorlik va kichik loyihalarni amalga oshirish orqali.

Yangi texnologiyalarni joriy etish. Masofaviy ish, frilansing (freelancing) va platformalar orqali bandlik shakllari raqamli savodxonlikni oshiradi. Bu esa texnologiyalarni qishloq va shahar aholisiga teng asosda yetkazish imkonini yaratadi va natijada mintaqalarda raqamli iqtisodiyotning rivojlanishiga zamin yaratadi.

Ijtimoiy tengsizlikni kamaytirish. Nostandart bandlik shakllari ayollar, yoshlar hamda nogironligi bo'lgan shaxslar kabi imkoniyati cheklangan guruhlarni mehnat bozoriga faol jalb etish imkonini beradi. Shu tariqa mintaqalar o'rtasidagi iqtisodiy tafovutlar yumshatiladi, chunki chekka hududlardagi aholiga masofaviy yoki qisqa muddatli ishlar orqali barqaror daromad olish imkoniyati yaratiladi.

Malakali kadrlarni jalb qilish. Masofaviy ish shakli orqali yirik shaharlarga ko'chmasdan turib, yuqori malakali mutaxassislar mintaqaviy loyihalarda ishtirok etishlari mumkin. Bu esa hududlarda yangi ko'nikmalar va ilg'or texnologiyalarni joriy etishni osonlashtiradi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Nostandart bandlik shakllari zamonaviy mehnat bozorining ajralmas qismi sifatida shakllanib bormoqda. Ular ishchi kuchi va ish beruvchilar o'rtasida yangi, moslashuvchan mehnat munosabatlarini vujudga keltirib, ayniqsa iqtisodiy jihatdan sust rivojlangan hududlarda ijtimoiy-iqtisodiy faollikni rag'batlantirishda muhim rol o'ynamoqda. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, nostandart bandlik mintaqalarda ish o'rinlarini ko'paytirish, ishsizlikni kamaytirish, yangi texnologiyalarni joriy etish, ijtimoiy tengsizlikni yumshatish hamda malakali kadrlarni jalb qilishda samarali vosita sifatida xizmat qiladi. Ayniqsa, chekka va qishloq hududlar uchun bu bandlik turi mintaqaviy iqtisodiy rivojlanishning muhim omiliga aylanmoqda.

Biroq, nostandart bandlik bilan bog'liq huquqiy tartibga solish, ijtimoiy himoya va barqaror mehnat sharoitlarini ta'minlash borasida mavjud muammolar ushbu bandlik shaklini joriy etishda ehtiyotkorlik va puxta siyosiy yondashuvni talab qiladi. Shu munosabat bilan quyidagi takliflar ilgari suriladi: Nostandart bandlikni huquqiy jihatdan tartibga solish va uni rasmiy mehnat bozori tarkibiga qo'shish maqsadida qonunchilik bazasi takomillashtirilishi lozim. Chekka va iqtisodiy faolligi past bo'lgan hududlarda nostandart bandlik shakllarini, jumladan masofaviy ish, freelancing va platforma mehnatini rivojlantirishga yo'naltirilgan maxsus davlat dasturlari ishlab chiqilishi zarur. Raqamli texnologiyalarga asoslangan bandlik turlarini kengaytirish uchun aholining raqamli savodxonligini oshirishga qaratilgan o'quv kurslari tashkil etilishi muhim. Ayollar, yoshlar va nogironligi bo'lgan shaxslar uchun nostandart bandlikni qo'llab-quvvatlaydigan ijtimoiy dasturlar hamda subsidiya mexanizmlari joriy qilinishi maqsadga muvofiqdir. Ijtimoiy himoya tizimi nostandart bandlik shakllarini inobatga olgan holda takomillashtirilib, ushbu guruh ishchilarining pensiya, tibbiy xizmat va mehnat xavfsizligi bo'yicha kafolatlari mustahkamlanishi kerak. Hududiy mehnat resurslari monitoringi yo'lga qo'yilib, nostandart bandlik shakllarining rivojlanish dinamikasi baholanishi, muammoli nuqtalar aniqlanib, ularga mos siyosiy choralar ishlab chiqilishi tavsiya etiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YHATI

1. Burkhanov, O. Y., & Potemkin, V. K. (2021). Sotsial'no-ekonomicheskie problemy zaniatosti rabotnikov predpriatii v period obshchestvennykh transformatsii. Teleskop: Zhurnal Sotsiologicheskikh i Marketingovykh Issledovaniy, (2).
2. International Labour Organization. (2016). Non-standard employment around the world: Understanding challenges, shaping prospects. https://www.ilo.org/global/publications/books/WCMS_534326
3. OECD. (2020). Non-standard work and the role of public policy. <https://www.oecd.org/employment/non-standard-work-and-the-role-of-public-policy>
4. European Commission. (2018). Non-standard forms of employment. Eurofound. <https://www.eurofound.europa.eu/publications/report/2018/non-standard-forms-of-employment>
5. United Nations Economic Commission for Europe (UNECE). (2020). Measuring non-standard forms of employment. <https://unece.org/sites>
6. World Bank. (2019). World development report 2019: The changing nature of work. <https://www.worldbank.org/en/publication/wdr2019>
7. Kalleberg, A. L. (2000). Nonstandard employment relations: Part-time, temporary and contract work. Annual Review of Sociology, 26, 341-365. <https://doi.org/10.1146/annurev.soc.26.1.341>
8. Standing, G. (2011). The precariat: The new dangerous class. London: Bloomsbury Academic. <https://library.oapen.org/bitstream/handle>
9. Rubery, J. (2015). The shift to non-standard employment in Europe. International Labour Organization (ILO). <https://www.ilo.org/wcmsp5/groups/public>
10. De Stefano, V. (2016). The rise of the just-in-time workforce. Comparative Labor Law and Policy Journal, Forthcoming. Bocconi Legal Studies Research Paper No. 2682602. https://papers.ssrn.com/sol3/papers.cfm?abstract_id=2682602



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

6-Maxsus son. Bakalavr talabalarining maqolalari to'plami

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>